




Nogironligi bor insonlarni reabilitatsiya vositalari bilan ta’minlash tartibi



Illyustratsiya	Oson matn
	Bu maqolada sen nogironligi bor insonlarni **reabilitatsiya vositalari bilan ta’minlash** tartibi haqida bilib olasan.
	**Reabilitatsiya vositalari –** bu senga kerak bo‘ladigan barcha tibbiy jihozlar.
	**Reabilitatsiya vositalari bular:** ● hassa ● ko‘zoynak ● quloqchin ● protez apparatlari ● korset va boshqalar.
	● Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-apreldagi 253-sonli qaroriga ko‘ra, senga: ● protez-ortopediya qurilmalari ● reabilitatsiya vositalarini berish tartibi belgilandi.

	Senga 30 xil turdagi reabilitatsiya vositalari berilishi mumkin.
	Senga reabilitatsiya vositalarini berish uchun sening nogironligingni belgilash kerak.
	Agar sen: • pensioner bo‘lsang • va nogironlik guruhing bo‘lmasa senga reabilitatsiya vositalari tibbiy xulosaga qarab beriladi.
	Sen tibbiy xulosani olishing uchun o‘zing yashaydigan joydagi poliklinikaning vrachlik-maslahat guruhiga ariza yozishing kerak.
	Vrachlik-maslahat guruhi: • sening arizang • va davolovchi shifokorning tibbiy hujjatlariga qarab senga tibbiy xulosa beradi.

	Vrachlik-maslahat guruhi beradigan xulosa qurilmalar berish ko‘rsatmasiga to‘g‘ri kelishi kerak.
	Masalan, senga xonaga mo‘ljallangan o‘rindiqli aravachani berish uchun tibbiy ko‘rsatma tasdiqlangan.
	Senga: ● surunkali yurak yetishmovchiligi NYHA bo‘yicha to‘rtinchi funksional sinf ● uchinchi daraja nafas olish yetishmovchiligi bilan asoratlangan nafas olish organlari kasalliklari ● har qanday darajadagi qon aylanishi yetishmovchiligi bilan uyg‘unlikda ● portal gipertenziya va assit bilan birgalikda kechuvchi jigar kasalliklari oqibatida yuzaga kelgan yurish va turishning kuchli ifodalangan buzilishi ● to‘rtinchi darajadagi surunkali buyrak yetishmovchiligiga olib keladigan kasalliklar ● surunkali buyrak kasalliklari beshinchi darajasi sababli yuzaga kelgan yurish turishning kuchli buzilishi ● surunkali arteriya va vena kasalliklari tufayli yuzaga kelgan yurish turishning kuchli ifodalangan buzilishi ● ikkala tomonlama “fil oyoqlik” bosqichida limfedema tufayli yuzaga kelgan yurish turishning kuchli ifodalangan buzilishi

	• kuchli pastki paraparez • ikkala chanoq-son va (yoki) tizza bo‘g‘imlarini endoprotezlash asoratlaridan keyin yuzaga kelgan yurish-turishning kuchli ifodalangan buzilishi • bir oyoq funksiyasi ifodalangan darajada buzilgan holdagi ikkinchi oyoqning amputatsiya cho‘ltoqligi • ikkala chanoq-son va (yoki) tizza bo‘g‘imlarining uchinchi va to‘rtinchi darajali artrozi • pastki paraplegiya, triplegiya (oyoqning bittasi plegiya bo‘lganda), tetraplegiya • ifodalangan akinetik-rigid sindromi va kuchli ifodalangan ataksiya, vestibulyar-miyacha buzilishlari, giperkinetik buzilishlar • ikkala tizza va undan yuqoridagi amputatsion cho‘ltoqligi • ikkala oyoq va tos suyaklari kuchli ifodalangan nuqsoni, deformatsiyasi va tug‘ma anomaliyasi (rivojlanish nuqsonlari) • aqliy zaiflik va ruhiy kasalliklarning og‘ir darajasi va demensiya uchun o‘rindiqli aravacha beriladi.
	Senda nogironlik bo‘lsa: • nogironlik vaqtiga qarab • shifokorlar tekshiruvidan o‘tish vaqtigacha belgilanadi.

	Shifokorlar sening nogironligingni belgilaganda va tibbiy xulosa “Ijtimoiy himoya” tizimiga kiritilganda, sen protez moslama yoki reabilitatsiya vositalariga muhtoj insonlar ro‘yxatiga kiritilasan.
	Agar senda vaucher bo‘lsa, sening telefoningga bu haqida SMS yoki shaxsiy kabinetingga xabar keladi.
	**Vaucher –** bu ma’lum bir reabilitatsiya vositasini sotib olish uchun berilgan pul qiymati o‘rnini bosuvchi qog‘oz**.**
	Masalan: ● sen 34 million so‘mlik protezga buyurtma berding ● sendagi vaucher esa 31 million so‘mga berilgan ● bunda qolgan 3 million so‘mni sen o‘zing to‘laysan.
	Ijtimoiy himoya milliy agentligi va “Uzum Market” bilan muhtoj insonlarga protez-ortopediya va reabilitatsiya vositalari berish uchun hamkorlikda yangi tizim ishga tushirilgan.

	Bu tizim orqali bepul tarzda reabilitatsiya vositalari yetkazib beriladi.
	Senga beriladigan reabilitatsiya vositalari ro‘yxati: ● Son, boldir, qo‘l va ko‘krak bezi protezlari ● Apparatlar, tutorlar, korsetlar va bandajlar ● Murakkab ortoped poyabzal va protez poyabzal ● Raqamli eshitish moslamalari ● Elektr yuritmali kreslo-aravachalar va yurish moslamalari ● Mexanik kreslo-aravachalar, hassalar va qo‘ltiq tayoqlar ● Ovozli tonometr, termometr va boshqa moslamalar.